



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 6-avgust

VI-104-103-7-96-K/24

Kattaqo'rg'on tumani

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagи "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son Qarorining tumandagi ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 7 martdagи "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son Qarori ijrosini ta'minlash, xotin-qizlarning faolligini oshirish, ayollar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish maqsadida hamda huma hokimi o'rinosari S.Djumayevanining hisobotini muhokama etib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 104-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman hokimi o'rinosari S.Djumayevanining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagи "Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo'lga qo'yish va rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-122-son qarorining tumandagi ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumot va uchun qabul qilinsin.

2. Tumanida 2024–2025-yillarda tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlari dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o'rinosari (S.Djumayeva), O'zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo'limi (I.Nurmuradov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov)ga:

- xotin-qizlarni kasb-hunarga, tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish;

- mahallalardagi ishsiz, muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish hamda tadbirkorlik qilish istagini bildirgan xotin-qizlarning manzilli ro'yxatlarini shakllantirish;

- tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning realizatsiyasiga ko'maklashish yuzasidan vazifalar yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi

(R.G‘ulomov) va tuman hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i S.Djumayeva zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining  
 2024-yil 6-avgustdagি  
 VI-104-103-7-96-K/24 -son qaroriga  
 1-ilova

**Kattaqo‘rg‘on tumanida 2024–2025 yillarda tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha**  
**CHORA-TADBIRLARI DASTURI**

t/ r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag‘	Moliyalash -tirish manbai	Mas’ullar
<b>I. Ishsiz xotin-qizlarni, ularning ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlash</b>						
1.	Mahallalardagi ishsiz, muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish hamda tadbirkorlik qilish istagini bildirgan xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i rahbarligida mas‘ul tashkilot va idoralar, tijorat banklari vakillaridan iborat ishchi guruhlar tashkil etish.</li> <li>Mahallalardagi ishsiz xotin-qizlarni, ularning bandligini ta’minlash zaruratini va buning imkoniyatlarini xonadonbay o‘rganish.</li> <li>O‘rganish natijalaridan kelib chiqib, mahallalar kesimida ishsiz va daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarning aniq ro‘yxatini shakllantirish.</li> <li>Har bir mahallada xotin-qizlarni qo‘llab-</li> </ol>	2024-yil aprel  2024-yil aprel oyidan boshlab  har 6 oyda  har 6 oyda			Tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (S.Djumayeva), O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), Xalq banki, Mikrokreditbank, Biznesni rivojlantirish banki, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi, Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov), Hunarmand uyushmasi tuman bo‘limi (Sh.Qudratullayev)

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
		quvvatlash rejasini ishlab chiqish.				
2.	Ihsiz, ishslash istagini bildirgan xotin-qizlar hamda ularning bandligi ta'minlanishining elektron hisobini yuritish tizimini takomillashtirish.	“Xonardonbay” o‘rganish jarayonida aniqlangan ishsiz, ishslash istagini bildirgan xotin-qizlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xotin-qizlar.uz platformasiga kiritish.	2024-yil iyul oyidan boshlab doimiy	Hisob-kitoblarga asosan	Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi	Tuman hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov)
<b>II. Xotin-qizlarni kasb-hunarga, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish</b>						
3.	2024–2025 yillarda ish bilan band bo‘lmagan 3462 nafar xotin-qizni (shundan 2024 yilda 1304 nafar) kasb-hunarga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish. Bunda, xotin qizlarning 1089 nafarini (shundan 2024 yilda 789 nafar) kasb-hunarga o‘qitish (parrandachilik, hunarmandchilik, issiqxona, tikuvchilik, xizmat ko‘rsatish, asalarichilik va h.k.); – 715 nafarini (shundan 2024 yilda 515 nafar) tadbirkorlik ko‘nikmalari va moliyaviy savodxonlikka o‘qitish nazarda tutildi.	<p>1. 2024–2025 yillarda ish bilan band bo‘lmagan 3462 nafar xotin-qizni (shundan 2024 yilda 1304 nafar) kasb-hunara va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash.</p> <p>2. Kasb-hunarga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qish istagida bo‘lgan ishsiz va band bo‘lmagan xotin-qizlarning manzilli ro‘yxati asosida 2024 yilda: Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik tizimi tashkilotlarida kasb xunarga ukitish 789 nafar;</p> <p>Hunarmand uyushmasi tomonidan (40 nafar ustaga shogird biriktirish asosida) 120 nafar;</p> <p>Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazining yo‘llanmasi asosida 43 nafar;</p> <p>Savdo-sanoat palatasi tomonidan 35 nafar xotin-qizni kasb-hunara, tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish.</p> <p>Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida 515 nafar;</p> <p>3. 2025 yilda kamida 820 nafar xotin-qizni</p>	<p>2024-yil aprel-dekabr 2024 -il davomida ishlab chiqish – 2024-yil dekabr, o‘qitish – 2025 yilda</p>	<p>Hisob-kitoblarga asosan Hisob-kitob asosida</p>	<p>Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari</p> <p>Oila va xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi</p>	Tuman hokimi o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i (S.DJumayeva), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), mahalla yettiligi

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
		kasb-hunarga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish hamda ularning o‘qitilishini tashkil etish.				
4.	Kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qitish dasturlarini mehnat bozoridagi talabdan kelib chiqqan holda takomillashtirish.	<p>1. Mehnat bozoridagi talabdan hamda hududning rivojlanish istiqbollari, shu jumladan mahallalarning “o‘sish nuqtalari” (ixtisoslashuv yo‘nalishlari)dan kelib chiqib, o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish</p> <p>2. O‘quv jarayonlariga ilg‘or ayol tadbirkorlar hamda keng auditoriyaga ega motivatorlar, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.</p>	2024-yil aprel reja asosida	Hisob kitoblaasosi da	Ijrochilar mablag‘lari, grant mablag‘lari	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov), Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (O.Tursunqulov), tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov), tijorat banklari (U.Xoldorov ), nodavlat notijorat muassasalari

t/ r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag‘	Moliyalash -tirish manbai	Mas’ullar
5.	Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash uchun loyihalar fabrikasini ishga tushirish. Bunda, chорvachilik 30 ta, savdo va xizmat ko‘rsatish 52 ta, dehqonchilik 25 ta; bog‘dorchilik 25 ta; issiqxona 20 ta; kichik ishlab chiqarish 20 ta; hunarmandchilik 21 ta; boshqa yo‘nalishda 40 ta loyihalar.	<p>1. Xotin-qizlar tadbirkorligi va bandligini ta’minlashga qaratilgan loyihalariga zarur kredit mablag‘larini ajratish chorasini ko‘rish.</p> <p>2. “Loyihalar fabrikasi” elektron platformasi haqida aholi xabardorligini oshirish yuzasidan targ‘ibot ishlarini tashkil etish.</p>	2024 yil II yarim yilligi davomida	-	-	Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (N.Jo‘lmatov), AT “Xalq banki” Payshanba BXМ (U. Xoldorov), “Mikrokreditbank” ATB (O.Abduraxmonov, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB, Savdosanoat palatasi tuman bo‘limi O.Tursunqulov, “Hunarmand” uyushmasi tuman bo‘limi (Sh. Qudratullayev)

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
6	2024-2025 yillarda 3462 nafar xotin-qizning (shundan 2024 yilda 2962 nafar) bandligini ta’minalash.	<p>Ishlash istagida bo‘lgan ishsiz va band bo‘lмаган xotin-qizlarning shakllangan manzilli ro‘yxati asosida:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– 3462 nafar (shundan 2024 yilda 620 nafar) xotin-qizni mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish orqali bandligini ta’minalash;</li> <li>– 620 nafar (shundan 2024-yilda 250 nafar) haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish.</li> </ul>	2024-2025-yillar davomida			Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (N.Jo‘lmatov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuamn bo‘limi (E.Raximov), tuman hokimining o‘ribbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva)
7	O‘zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan ajratilgan resurs asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida xotin-qizlar tadbirkorligi loyihamonini moliyalashtirish orqali 147 nafar xotin-qizning bandligini ta’minalash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarga biznes rejalarini ishlab chiqishda ko‘maklashish.</li> <li>2. Skoring tizimidan o‘tgan loyiha tashabbuskorlariga kredit mablag‘lari o‘z vaqtida va maqsadli ajratilishini ta’minalash. Bunda, AT “Xalq banki” orqali 97 ta loyihani moliyalashtirish</li> <li>3. Ajratilgan imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish va o‘z vaqtida so‘ndirish yuzasidan doimiy monitoring olib borish.</li> </ol>	<p>2024-yil aprel-may</p> <p>2024-yil davomida</p> <p>har oyda</p>			Tuman hokimi birinchi o‘ribbosari (N.Jo‘lmatov), AT “Xalq banki” Payshanba BXM (U. Xoldorov), “Mikrokreditbank” ATB, tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov), mahalla yettiligi

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag'</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas'ullar</b>
8	“Ustoz-shogird” an’ anasi asosida 40 nafar usta hunarmandning hamda unga biriktiriladigan ishsiz xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. “Ustoz-shogird” an’ anasi asosida 120 nafar xotin-qizni hunarmandchilikka o‘rgatish orqali bandligini ta’minalash.	1. Hududlar kesimida 40 nafar usta hunarmandning hamda unga biriktiriladigan ishsiz xotin-qizlarning manzilli ro‘yxatini shakllantirish. 2. “Ustoz-shogird” an’ anasi asosida 120 nafar xotin-qizni hunarmandchilikka o‘rgatish orqali bandligini ta’minalash.	2024-yil aprel 2024-yil davomida	Hisob-kitoblar asosida	Hunarmandlar mablag‘lari	Hunarmand” uyushmasi tuman bo‘limi (Sh. Qudratullayev) tuman hokimi o‘ribbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva) mahalla yettiligi
9	Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida avval ajratilgan kreditlarning qaytgan qismi hisobidan loyihalarni moliyalashtirish orqali xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish.	1. Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilgan kreditlardan bo‘lgan qarzdorlikni o‘z vaqtida undirish choralarini ko‘rish. 2. Loyiha tashabbuskorlariga biznes rejalarini ishlab chiqishda ko‘maklashish.	2024-2025-yillar davomi	Hisob kitoblarga asosan	Undirilgan qarzdorlik hisobidan	Tuman hokimining birinchi o‘ribbosari (N.Julmatov), AT “Xalq banki” Payshanba BXM (U. Xoldorov), “Mikrokreditbank” ATB
10	Ipak qurti parvarishi istagidagi 1200 nafar xotin-qizlarga yangi texnologiya asosida pilla yetishtirishni tashkil etish.	1. Shakllantirilgan ro‘yxat asosida ichki shartnomalarni imzolash. 2. Plyonka ostida intensiv usulda pilla boqish uchun qo‘simecha sharoitlar yaratish.	2024-yil aprel iyul-avgust	Hisob-kitoblarga asosan	Klaster korxonalari mablag‘lari	Tuman hokimining o‘ribbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.DJumayeva), ipak klaster korxonalari
11	Parrandachilik sohasida ishlash istagidagi 69 nafar o‘zini o‘zi band qilgan, tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan ayollarni 69 nafariga parrandalarni etkazib berish.	1. Parrandachilik sohasida ishlash istagi bo‘lgan xotin-qizlarni aniqlash. 2. Mahallabay ishslash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tuman bo‘limi bilan parrandalarni etkazib berish.	2024-yil aprel-may 2024-yil davomida	Hisob-kitoblarga asosan	Aholini tadbirkorlikka jaib qilish jamg‘armasi mablag‘lari	Tuman hokimining o‘ribbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S. D Jumayeva), Biznesni rivojlantirish banki

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
1 2	Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan ishsiz xotin-qizlar bandligini ularga tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish uchun subsidiyalar ajratish orqali ta’minalash.	<p>1. Ijtimoiy daftarlarga hamda ijtimoiy reyestrga kiritilgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, o‘zini o‘zi band qilish istagida bo‘lgan ishsiz xotin-qizlarning ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda 253 nafar (shundan 2024 yilda 125 nafar) xotin-qizga subsidiya ajratish.</p> <p>2. Subsidiya mablag‘laridan maqsadli foydalanish yuzasidan monitoring yuritish va amaliy yordam ko‘rsatish.</p>	2024-2025 yillar  2024-2025 yillar davomida	Hisob kitoblarga ko‘ra	Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg‘armasi, Hunarmandchilik va kasanachilikni rivojlantirish jamg‘armasi	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.DJumayeva.) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), Inson ijtimoiy xizmatlar markazi, (N.Jo‘rayev), Yoshlar ishlari tuman bo‘limi (L.Abduqaxxorov)
1 3	Mahallalardagi xotin-qizlar bandligini ta’minalash va salomatligini mustahkamlash markazlarini moliyaviy qo’llab-quvvatlash va faoliyatini takomillashtirish.	<p>1. Xotin-qizlar bandligini ta’minalash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha e’lon qilingan grant loyihalarni to‘plash.</p> <p>2. Tanlov g‘oliblarini aniqlash.</p> <p>3. G‘oliblarga grant mablag‘ini ajratish va ish o‘rnulari tashkil etish chorasini ko‘rish.</p>	2024-yil aprel 2025-yil yanvar  2024-yil iyun, 2024-2025 yillar	-	Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan	Tuman hokimining o‘rinbosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.DJumayeva), O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), mahalla yettiligi
1 4	Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi faoliyatini rivojlantirish hamda shu orqali xotin-qizlar tadbirkorligiga ko‘maklashish.	Kattaqo‘rg‘on tumanida xotin-qizlar tadbirkorlik markazida tadbirkorlik va kasb-hunar o‘rganish istagida bo‘lgan xotin-qizlarni o‘qitish.	2024-2025 yillar	Hisob-kitoblarga asosan	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.DJumayeva)
1 5	Umumiyl o‘rtalim va o‘rtalim maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalarini bitirgan qizlarning bandligini	1. Umumiyl o‘rtalim va o‘rtalim maxsus, kasb-hunar muassasalarini bitiruvchilari haqidagi ma’lumotlarni Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish	Har yili iyul	-Hisob-kitoblar asosida	Tijorat banklari	Tuman hokimi o‘rinbosari, (O.Shirinov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Sultonov), Kambag‘allikni qisqartirish va

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
	ta’minalash bo‘yicha alohida manzilli ishlarni amalga oshirish.	<p>bo‘limi (E.Raximov)ga taqdim etish.</p> <p>2. Bandlik dasturlari doirasida yaratilgan yangi ish o‘rinlariga hamda mavjud bo‘s sh ish o‘rinlariga bitiruvchi xotin-qizlarni joylashtirish.</p> <p>3. Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari bitirib ishslash istagini bildirgan yoshlarni kasbhunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minalash.</p> <p>4. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan bitiruvchi xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar ajratilishini tashkil etish.</p>	<p>2024-2025 yillar 2-yarim yilligi davomida</p> <p>2024-2025 yil iyun-sentabr</p>			bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), tijorat banklari (U.Xoldorov), Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limi (O.Tursunqulov) tuman Oila va xotin- qizlar bo‘limi (S.Djumayeva)
1 6	Mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan xotin-qizlarning bandligini ta’minalash choralarini ko‘rish.	<p>1. Uzoq muddatga xorijiy davlatlarga ishslash uchun chiqib ketgan xotin-qizlarning mehnat faoliyatini hamda daromad miqdorini aniqlash.</p> <p>2. Kam daromadli mehnat faoliyati bilan band bo‘lganlarni Vataniga qaytarish choralarini ko‘rish hamda ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Mutaxassislikka va malakaga ega bo‘lmagan migratsiyadan qaytgan xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish orqali bandligini ta’minalash.</p> <p>4. Xorijiy davlatlardan qaytgan migrant xotin-qizlarning mutaxassisligi va malakasidan kelib chiqib, hududlardagi bo‘s sh ish o‘rinlariga ishga joylashtirish hamda tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish.</p>	<p>2024-2025 yillar muntazam</p> <p>Har oyda</p> <p>Migratsiyada qaytganidan keyin 3 oy muddatda</p> <p>Migratsiyada qaytganidan keyin bir oy muddatda</p>	<p>Hisob-kitob asosida</p>	<p>Tadbirkorlar mablag‘i, o‘z mablag‘i, bank krediti, Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan</p>	<p>Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov), tuman hokimi birinchi o‘rinosari (N.Jo‘lmatov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva), mahalla yettiligi</p>

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
1 7	Aholi o‘z tomorqasidan samarali foydalanishiga ko‘maklashish orqali (gulchilik, limonchilik, tutchilik, ko‘chatchilik, mineral o‘g‘it, texnika xizmati va boshqalar) xotin-qizlar bandligini ta’minalash.	<p>1. Mahallalarda foydalanił-mayotgan va bo‘sh turgan aholi tomorqalarini aniqlash.</p> <p>2. Aholi o‘z tomorqasidan samarali foydalanishiga ko‘maklashish maqsadida ularga urug‘lik, ko‘chat, mineral o‘g‘it yetkazib berish, texnika xizmati ko‘rsatish.</p> <p>3. “Xonadonbay” ishslash asosida “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘yish.</p> <p>4. Tomorqa xo‘jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishslash va eksportyor korxonalarni jalb etgan holda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga ko‘maklashish.</p> <p>5. Tomorqasida band bo‘lgan xotin-qizlarga o‘zini o‘zi band qilganlik sifatida ro‘yxatdan o‘tish bo‘yicha tushuntirish berish va targ‘ibot ishlarini olib borish.</p>	<p>2024-yil aprel Reja asosida</p> <p>2024-yil aprel Hisob-kitob asosida</p> <p>Yil davomida</p> <p>Yil davomida</p>		Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari jamg‘armasi	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Julmatov), Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (M.Mavlonov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), mahalla yettiligi
1 8	Xotin-qizlar o‘rtasida norasmiy bandlikning ulushini qisqartirish.	<p>1. Norasmiy bandlik sabablarini o‘rganish yuzasidan mutasaddi tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. Xotin-qizlar o‘rtasida norasmiy bandlik ulushi yuqori bo‘lgan hudud va sohalarda uning sabablarini hamda keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish.</p> <p>3. Xotin-qizlarning rasmiy bandligini ta’minalashga to‘sinqilik qilayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.</p>	<p>2024-yil aprel</p> <p>2024-yil iyun</p> <p>2024-yil iyul</p>	-	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), Kasaba uyushmalari tuman birlashmasi (A.Kenjayev, M.Sadreddinov), tuman tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva)

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
1 9	Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida, xususan, paxta-to‘qimachilik klasterlari va fermer xo‘jaliklarida mavsumiy band bo‘lgan xotin-qizlarning mehnat shartnomaviy munosabatlari bilan qamrab olish.	<p>1. Mavsumiy ishchilar bilan muddatli shartnomalarini tuzish orqali mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish choralarini ko‘rish.</p> <p>2. “Yagona milliy mehnat tizimi” IDAKda mavsumiy mehnat shartnomalarini elektron ro‘yxatdan o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish.</p>	<p>2024-yil may</p> <p>2024-yil davomida</p>			Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Rizonov), tuman soliq inspeksiyasi (N.Razzakov)

#### **IV. Tadbirkor xotin-qizlarning faoliyatini kengaytirish, faoliyati to‘xtab qolgan tadbirkor xotin-qizlarning faoliyatini qayta tiklashga ko‘maklashish**

2 0	Tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishga ko‘maklashish.	<p>1. Ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishda qiynalayotgan xotin-qizlarning ro‘yxatini shakllantirib borish.</p> <p>2. Mahalliy yirik ishlab chiqaruvchilar bilan aloqa o‘rnatishga ko‘maklashish.</p> <p>3. Xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlarni mahalliy va jahon logistika kompaniyalari tomonidan xaridorlarga yetkazib berish tizimini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish.</p> <p>4. O‘rganish natijalari bo‘yicha elektron portallar orqali xotin-qizlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar realizatsiya qilinishini tashkil etish.</p>	<p>Har chorakda</p> <p>har chorakda</p> <p>2024-yil davomida</p> <p>2024-yil aprel</p>			Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (N.Jo‘lmatov), tuman Savdo-sanoat palatasi (O.Tursunqulov), tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.Djumayeva)
--------	---	---	--	--	--	--

t/ r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Talab etiladigan mablag‘	Moliyalash -tirish manbai	Mas’ullar
2 1	Tadbirkor ayollar rahbarligida tashkil qilingan kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyati davomiyligiga ko‘maklashish.	1. Faoliyat yuritmayotgan tadbirkorlik subyektlarining ro‘yxatini shakllantirish. 2. Ularning muammolarini manzilli tahlil qilish, faoliyatini to‘xtatishga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash. 3. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tiklash va kengaytirish bo‘yicha aniq manzilli (tadbirkorlik subyektlari kesimida) hududiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash.	2024-yil aprel  2024-yil may ishlab chiqish – 2024-yil iyun, amalga oshirish – reja asosida	-	-	Tuman hokimi birinchi o‘rnibosari (N.Jo‘Imatov), Savdo-sanoat palatasi, tuman bo‘limi (O.Tursunqulov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov), tuman Soliq bo‘limi (N.Razzakov), tijorat banklari (U.Xoldorov, F.Tolibov)

**V. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish**

2 2	Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlarni jamoatchilikka yetkazish.	1. Xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarni yoritish bo‘yicha media-reja ishlab chiqish. 2. Xotin-qizlar bandligini ta’minlash, jumladan, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlarni, qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini, berilayotgan imtiyoz va preferensiylar, amalga oshirilayotgan ishlarning natijalarini aholiga tezkor, ta’sirchan va muntazam yetkazib borish. 3. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida maxsus ko‘rsatuvlar, ijtimoiy reklamalar va rolklarning muntazam namoyishini yo‘lga qo‘yish.	Har chorakda  har haftada  reja asosida	-	-	Tuman hokimining o‘rnibosari, Oila va xotin-qizlar bo‘limi (S.DJumayeva), Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman bo‘limi (E.Raximov), AT “Xalq banki” Payshanba BXM (U.Xoldorov), Mikrokredit bank
2	Har bir sektorda “Bo‘sish ish	1. Tumandagi tashkilot va idoralardagi bo‘sish	2024-2025 yillar	-	-	Kambag‘allikni qisqartirish va

<b>t/ r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Amalga oshirish mexanizmi</b>	<b>Ijro muddati</b>	<b>Talab etiladigan mablag‘</b>	<b>Moliyalash -tirish manbai</b>	<b>Mas’ullar</b>
3	o‘rinlari” yarmarkasini tashkil etish.	ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shaklantirish.  2. Har bir sektorda “Bo‘sh ish o‘rinlari” yarmarkasini tashkil etish.	davomida, har chorakda bir marta			bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov), mutasaddi tashkilot va idoralar, mahalla yettiligi